



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

**Istam Aminov<sup>1</sup>**  
**Ravshan Tugalov<sup>2</sup>**

<sup>1</sup>Samarqand davlat universiteti dotsenti

<sup>2</sup>Samarqand viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi, o'qituvchi

## **O'QITUVCHINING KASBIY FAOLIYATI STANDARTINI AMALGA OSHIRISHDA ELEKTRON AXBOROT VOSITALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI**

**Annotatsiya.** Ilg'or ta'lim masalasi birinchi galdagi vazifa deb hisoblansa, pedagogik tizimni rivojlantirishning zamonaviy bosqichi yaxlit shaxsni rivojlantirish mexanizmi sifatida refleksiya bo'lgan layoqatni shakllantirish g'oyasini olg'a suradi. Refleksiv pozitsiya shaxsning boshqa barcha nuqtayi nazarlarini shakllantirish uchun asosdir. Shu munosabat bilan, bo'lajak o'qituvchining aynan ushbu shaxsiy-mustaqil ta'limini shakllantirish jarayonini tahlil etishni maqsadga muvofiq.

**Kalit so'zlar:** kasb, standart, faoliyat, reflektiv pozitsiya, refleksiya

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasida oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish; xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan, o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish muhim vazifalar sifatida belgilab berildi. [1].

Insonning o'z faoliyati va "hayot sohibi" sifatida o'ziga nisbatan ongli munosabati refleksiya orqali shakllantiriladi, chunki aynan refleksiya anglab yetiladigan voqelikka nisbatan o'z munosabatini identifikatsiyalashga yordam beradi.

Ilg'or ta'lim masalasi birinchi galdagi vazifa deb hisoblansa, pedagogik tizimni rivojlantirishning zamonaviy bosqichi yaxlit shaxsni rivojlantirish mexanizmi sifatida refleksiya bo'lgan layoqatni shakllantirish g'oyasini olg'a suradi. Refleksiv pozitsiya shaxsning boshqa barcha nuqtayi nazarlarini shakllantirish uchun asosdir. Shu munosabat bilan, bo'lajak o'qituvchining aynan ushbu shaxsiy-mustaqil ta'limini shakllantirish jarayonini tahlil etishni maqsadga muvofiq.

G.P.Shedrovitskiy birinchilardan bo'lib "refleksiv pozitsiya" tushunchasini individ amalga oshirilayotgan faoliyatga nisbatan uni tahlil qilish va kelgusi faoliyat rejasini tuzib chiqish maqsadida "tashqi" pozitsiyani egallash zarurligini his qiladigan vaziyat sifatida talqin qilgan, bunda u refleksiv jarayonlarga asoslangan. G.P.Shedrovitskiy insonning tashqi olamga nisbatan nuqtayi nazarini refleksiv pozitsiya deb hisoblagan [4, 12-28 b.].

Dastlab, "refleksiv pozitsiya" tushunchasini aniqlashtirish uchun uning tarkibiy asosi hisoblangan "refleksiv" va "pozitsiya" atamalariga aniqlik kiritish lozim.

Refleksiya muammosi turli soha vakillari tomonidan ilgari surilgan va uning rivojlanishida sifat o'zgarishlari yuz bergan. "Refleksiya" tushunchasi fanning ko'plab sohalarida ishlatiladi, bu esa ushbu atama bilan bog'liq hodisa mazmunining ko'p ma'noli ekanligi bilan izohlanadi.

Refleksiya (lot.reflexio – ortga qaytish, aks etish) – 1) Kishining o'z xatti-harakatlari va ularning asoslarini tushunib yetishi, fahmlashiga qaratilgan nazariy faoliyati, bilishning alohida bir shakli; 2) fikrlash, o'z-o'zini nazorat qilish; 3) o'zining shaxsiy harakatlari va ularning qonun-qoidalarini fikrlashga yo'naltirilgan inson faoliyatining nazariy shakli; 4) o'z ruhiy holati haqida o'ylash, hayol surish, fikr yuritish, uni tahlil qilishga moyillikni anglatadi [2, 132-b.].

Bo'lajak o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi jarayonida uning tadqiqot mavzusi sifatida refleksiv pozitsiyasini rivojlantirish pedagogik va psixologik adabiyotlarda "refleksiya" tushunchasining mohiyatini aniqlashtirishning dolzarbligini ko'rsatadi. [3,32-b.].

Tadqiqotimiz uchun Q.Inoqov tomonidan taklif etilgan refleksiya ta'rifida juda muhimdir: "Refleksiya – bu insonning o'z faoliyatini tasavvur etishi, o'zining muvaffaqiyatlari va xatolarini ko'rish, ularni to'g'irlash va shu tarzda madaniy qadriyatlarni o'zlashtirish, dunyoda o'z o'rnini aniqlash, o'z imkoniyatlarini bilish qobiliyati bo'lib, bu esa qadr-qimmatga ega bo'lgan erkin shaxsni kamol toptiradi" [5].

Agar inson muayyan qadriyatlarga ega bo'lsa, u faoliyatdagi voqelikka o'z munosabatini ko'rsatishga doimo tayyor bo'ladi. Ushbu tayyorlik muayyan obyektlar va faoliyat sharoitlari inson uchun qanchalik ahamiyatli ekanligiga bog'liq bo'ladi: agar kishi o'z xohish-istaklarini ifoda etishga maqsadlar va faoliyat vositalarini tanlashga tayyor bo'lsa, u amalda o'zi uchun muhim va qadrlil bo'lgan narsani himoya qilishga tayyor bo'ladi. Binobarin, pozitsiya faqat faoliyatda, haqiqiy harakatda namoyon bo'ladi. Uni amalga oshirish uchun usullar, vositalar, sharoitlar zarurdir.

Shuni ta'kidlash kerakki, subyekt tomonidan refleksiv qobiliyatlarining maqsadli va mustaqil ravishda namoyon bo'lishi, shuningdek, refleksiv qobiliyatlardan foydalanish (voqelikni turli xil holatlarda yaxlit samarali faoliyatni ta'minlash uchun) subyektning refleksiyaga ichki anglangan tarzidagi tayyorgarligi bo'lganda namoyon bo'ladi, refleksiv pozitsiya shaxsning o'z faoliyatiga va o'z-o'ziga barqaror, yaxlit, ongli munosabatlar tizimini aks ettiradi, u shaxsiy tajribani shakllantirish va boyitishga yordam beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son.
2. Vulfov B.Z. Ivanov V.D. Osnov` pedagogiki: uchebnoye posobiye. – M.: URAO, 1999. – S. 438-439 b.
3. Abulxanova K.A. Problema opredeleniya subyekta v psixologii. Subyekt deystviya, vzaimodeystviya, poznaniya (Psixologicheskiye, filosofskiye, sotsiokulturn`ye aspect`): monografiya. – M., 2001. – 284 b.
4. Shedrovitskiy G.P. Kommunikatsiya, deyatelnost`, refleksiya // Issledovaniye rechem`slitelnoy deyatelnosti. – Alma-Ata, 2004. – 125 b.
5. Pedagogika: pedagogicheskiye teorii, system`, texnologii / Pod red. S.A.Smirnova. – M.: Akademiya, 1998. – 510 b.